

UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O'RNI.

Zilola Boltaeva Safayevna –

Buxoro viloyat

*XTXQT va MOHM "Aniq va tabiiy fanlar
metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar va tarbiyachilarning pedagogik mahoratida umumbashariy qadriyatlar ularning ma'naviy dunyosi naqadar keng ekanligini namoyish etiladi. Buyuk allomalarimizning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida umuminsoniy, ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor asosiy o'rin tutadi. Ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining asosi deb bilganlar. Inson xulqi va xatti-harakati aqlga, ilmfanni o'rganishga hamda ma'rifatga asoslangandagina kamolotga erishadi. Yosh avlodni tarbiyalashda ularga ilmiy bilimlarni berish bilan birga ma'naviy bilimlarni ham berish hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash maqsadga muvofiqligi yarqol namoyon etilgan. Shu bilan birga, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda ma'lum omillarga e'tibor qaratish zarurligi, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlari samaradorligi o'qituvchilar faolligi va mustaqil ta'lim olish faoliyatiga bog'liqligi, ta'lim muassasasida o'qituvchi shaxsining rivojlanishiga turli darajada ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarining komponenti sifatida ahamiyatliligi, tarbiyaviy munosabatlarning asosiy shakllaridan biri bo'lgan inson-kitob-inson munosabatlarini, ya'ni inson-kitob-inson munosabatlari jarayonida ham o'zaro ta'sir jarayoni mavjudligini inobatga olish o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishda o'ziga xos ahamiyat kasb etishi to'g'risida fikr yuritilgan.

Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar, avvalo, o'qituvchi ongiga singgan bo'lishi va shu asosida o'quvchi ongiga singdirilishi, demokratik jamiyat barpo etish va uni mustahkamlash uchun barkamal avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun hozirgi kun tarbiyachisi:

- pedagogik faoliyatda qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, ma'naviy barkamol;
- O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan e'tiqodli fuqaro;
- mutaxassislikka doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek nazariy ilmlarni mukammal egallagan;
- o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'radigan, har bir o'quvchi ulg'ayib, yaxshi odam bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko'maklashadigan;
- erkin va ijobiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i darkor. Ushbu qadriyatlar ta'lim-tarbiya asosida yosh avlod ongiga singdiriladi. Shunday ekan bu maqsadlarga erishish uchun, eng avvalo, o'qituvchining ma'naviy dunyosi va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan munosabati juda yuqori darajada bo'lishi kerak. Buyuk Sharq

allomalarining fikrlariga ko'ra, insonparvarlik g'oyalarining amalga oshishi ma'naviy barkamollikka erishish, bilimli va ma'rifatli bo'lishga bog'liq. Shuning uchun ham ular ilmlilikni insoniy qadriyat darajasida ulug'lab, jamiyatning barcha a'zolarini ilm egallashga chaqiradilar, muallimlarning mehnatini qadrlaydilar. Shu jumladan, Abu Rayhon Beruniy bilim-umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishning kaliti ekanligini alohida ta'kidlab, shunday yozadi: "Ilmning foydasi ochko'zlik bilan oltin, kumush to'plash uchun bo'lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo'lishdir"⁸. Demak, umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini pedagogik nuqtayi nazardan izohlaganimizda, insonning ma'naviy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan, amaliy faoliyatda davr sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan, o'z shakl va mazmunida xalqning ma'naviy olamini mujassam etgan, asrlar davomida xalqning ma'naviy madaniyatini shakllantirish manbayi sifatida qadrlanib kelingan ma'naviy- ruhiy xatti-harakatlar, narsa va hodisalar tushuniladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi mehnati faoliyatining umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltirilganligiga bog'liq. O'qituvchi o'zining qizg'in mehnat faoliyati va kasbiy mahorati bilan umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarga nechog'lik boy ekanligini ta'limtarbiya jarayonida namoyish etadi. O'qituvchi mehnatining natijasi bo'lmish komil inson yuksak ma'naviyatni yaratadi va rivojlantiradi, umumbashariy qadriyatlarni asraydi. Mamlakatimizda "kadrlarni o'qitish va tarbiyalash milliy tiklanish tamoyillari va mustaqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma'naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yo'naltirilgan ta'limning mazmuni davlat ta'lim standartlari asosida" ("Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" 54-bet) olib boriladi. Ayniqsa, umumbashariy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchining shaxsiga unda ta'lim va bilimlarga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirishga, mustaqil ish tutishni, insoniy qadr-qimmat tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Pedagogik faoliyatda umumbashariy qadriyatlar o'qituvchining qizg'in mehnati evaziga shakllanib boradi va quyidagi muammolar o'qituvchi uchun bugungi kunda eng muhim ahamiyatga ega: - o'qituvchi mehnatida jamiyatga xos umumbashariy qadriyatlarni o'z maqsadlarining asosi deb bilishi; - o'qituvchi mehnatida maqsadli qadriyatlarni samarali o'qituvchilarga uzatish istagining mavjudligi va imkoniyatlari; - o'qituvchilar maqsadli qadriyatlarni qabul qilishi uchun o'qituvchi tomonidan zarur shart-sharoitlarning yaratilishi. O'qituvchi mehnatining mohiyatida uning ma'naviy saviyasini ko'rsatadigan intellektual ong, yuksak ma'naviyat, an'analarga va umumbashariy qadriyatlarga tayanadigan zamonaviy ilg'or yutuqlardan oziqlanadigan milliy dunyoqarash va e'tiqod kabi mezonlar mavjud bo'lishi kerak. Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam. Milliy qadriyatlar asosida yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash har bir o'qituvchi-pedagogning insoniy burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy: o'ylar, hikmatlar, naqllar, she'rlar. Toshkent. 44-bet.
2. Ta'limda innovatsiyalar, investitsiyalar va intellektual salohiyat: muammolar, tahlillar va istiqbollari. 2019 yil 30 noyabr'.